



OILADA ZAMONAVIY “GENDER” ATAMASI HAMDA GENDER TENGLIK MASALALARI

Bayjonov F.B.

Alfraganus universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi p.f.f.d., (PhD)

Tayanch soʻzlar: gender, gender madaniyat, stereotiplar, huquqlar, shaxs, jamiyat, erkak va ayol, fiziologik jins.

Ключевые слова: пол, гендерная культура, стереотипы, права, личность, общество, мужчина и женщина, физиологический пол.

Key words: gender, gender culture, stereotypes, rights, identity, society, man and woman, physiological gender.

XXI asrning axborot asri deyilishi bejiz emas. Negaki, jamiyat shaxsning bilimdonligi va tadbirkorligiga tayanib rivojlanadi hamda taraqqiy topadi. Gender farqlar va tenglik asosida tashkil etilgan taʼlim jarayoni esa jamiyat taraqqiyotiga muhim hissa qoʻshib, bola shaxsining madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik jihatdan barqaror rivojlanishi uchun zarur tarkibiy qism sifatida maydonga chiqadi.

Mamlakatimizda oʻtgan asrning oxirlariga kelib taʼlim jarayonida gender farqlar va oʻxshashliklarni hisobga olish haqidagi fikrlar ilgari surila boshlandi. YUNESKOning 1998-yil 9-oktabrdagi anjumanida uzluksiz taʼlim tizimining maqsadi zoʻravonlik va zulmdan xoli boʻlgan jamiyatni barpo etish ekanligi eʼtirof etildi. Bunga erishish uchun yangi pedagogik texnologiyalar va zamonaviy metodlarini qoʻllagan holda oʻquv dasturlarini qayta ishlab chiqish zarurligi taʼkidlangan. Yangidan ishlab chiqilgan oʻquv dasturlarida erkak va ayollar tengligi, qolaversa, barcha fanlarning gender omillari hisobga olingan.

Jahon bankining soʻnggi tadqiqotlari shundan dalolat bermoqdaki, iqtisodiy rivojlanish hamda gender tenglik oʻrtasida oʻzaro bogʻliqlik mavjud. Mazkur muammoning jamiyat taraqqiyotida dolzarb ahamiyat kasb etishini soʻnggi yillarda yuqori potensialga ega mamlakatlarning ularga qiziqishining ortib borayotgani misolida ham yaqqol koʻrish mumkin.



Gender tafovutlar hamda o'xshash jihatlar ta'lim jarayonida o'g'il va qizlarning ta'lim olishidagi o'xshashliklar va farqlarni hisobga olish. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashga yordam beradi. Ma'lum bir jinsga mansublik bola shaxsining imkoniyatlarini belgilaydi. Bolalar orasidagi gender tafovut hamda o'xshashliklarni hisobga olishga qaratilgan izlanishlar gender pedagogikasi va psixologiyasida keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Bu ayniqsa, jinsiy tarbiya hamda bu jarayonda ruhiy imkoniyatlarni hisobga olish yo'nalishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Jinsiy ta'lim-tarbiya – ta'lim oluvchini kelajakdagi hayotga tayyorlashda ta'sir ko'rsatuvchi ta'limiy, tarbiyaviy hamda ma'rifiy vositalar yig'indisidir. Bugungi kunda ta'lim jarayonida gender tafovut hamda o'xshashliklarni inobatga olish – tabiiy ijtimoiy-pedagogik hodisa, deya e'tirof etilmoqda. Biroq didaktikada ushbu hodisaning ilmiy talqini mavjud emas. Ta'lim jarayonida gender farqlarga oid o'ziga xosliklarni hisobga olmasdan turib, ta'lim natijasining samaradorligini ta'minlash mumkin emasligi barcha mutaxassislariga ayon bo'lib bo'lmoqda. Ayniqsa, ruhshunoslar bu sohada bir qator yutuqlarni qo'lga kiritmoqdalar.

“Gender” atamasi 1968-yilda amerikalik psixolog olim Stoller tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan bo'lib, “jins” ma'nosini bildiradi. Jinsiy munosabatlar ilgari ham psixologiyada faol o'rganilgan bo'lsa-da, yangi atamaning paydo bo'lishi ijtimoiy fanlarda yangi oqimlarni yuzaga keltirdi. “Gender tarixi”, “Gender psixologiyasi”, “Falsafaning gender tomonlari”, “Gender antropologiyasi”, “Gender sotsiologiyasi”, keyinchalik esa “Gender pedagogikasi” kabi fan tarmoqlari shakllandi. “Gender” tushunchasi, avvalo, erkak va ayol, o'g'il va qiz bolalar munosabatlarining ijtimoiy-psixologik hamda pedagogik tomonlarini qamrab oladi. Mazkur tushuncha yangi ijtimoiy qarashlar va madaniyatga bog'liqdir” [1].

Madaniyat, milliy-madaniy anglash, ta'limni insonparvarlashtirish nuqtayi nazaridan gender tarbiya o'z oldiga maksimal darajada o'z o'rnini topa oladigan va o'z imkoniyatlarini to'la ocha oladigan madaniyatli inson, fuqaro, axloq egasini tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi. Agar bola yoshlik chog'ida gender kamsitilishni boshidan o'tkazsa, buning oqibati jiddiy bo'lishi mumkin. Gender tarbiya bolani jismonan va ruhan yaxlit bo'lgan, tug'ma va o'zlashtirilgan erkaklik va ayollik xulq-atvorni namoyon qiladigan vujud degan tushunchalardan kelib chiqadi. “Hozirgi vaqtda yaratilayotgan gender tarbiyaning pedagogik nazariyasi dunyoning odamda mujassamlangan tasviriga, shaxsga yo'naltirilgan g'oyalarga, madaniy ta'limga asoslangandir”.

“Bugungi kunda ta'limdagi gender tarbiya, gender tenglik strategiyasini barcha maktabgacha ta'lim dusturlarining eng muhim tarkibiy qismi sifatida

qabul qilishga asoslanadi. Uni amalga oshirish uchun esa quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur:

- gender-axborot muhitini kengaytirish;
- gender statistika, gender va ijtimoiy mas’uliyat muammolariga bag‘ishlangan keng qamrovli kampaniyalarni o‘tkazish;
- ulg‘ayayotgan avlod gender madaniyatini rivojlantirishning omili sifatida ota-ona va o‘qituvchilarning genderga oid kompetentligini yanada yaxshilash.

Gender tengligini ta’minlash barcha sohalarida bo‘lgani kabi ta’limda ham ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Pedagog kadrlar hamda ta’lim tizimida tahsil oluvchi hisoblangan o‘g‘il va qizlarga imkoniyatlar va imtiyozlardan foydalanishda teng huquq berilishi hamda shart-sharoitlar yaratishga alohida ahamiyat berilmoqda.

“Gender” tushunchasining lug‘aviy ma’nosi lotincha “genus”, ya’ni “jins” ma’nosini anglatadi. Agar biologik jins insonlarni ayol va erkaklarga ajratadigan bo‘lsa, gender – bu ayol va erkaklarning jamiyatdagi o‘rnini ajratishga qaratilgan. Jamiyatda ayol va erkaklarning o‘z o‘rnini topishi va belgilashi uchun davlat ularga bir xil sharoit va imkoniyat yaratib berishi gender tenglikni ta’minlashda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Gender muammosi faylasuflar, jamiyatshunoslar, antropologlar, tilshunoslar, adabiyotshunoslar, psixolog hamda pedagoglarning e’tiborini o‘ziga jalb qilmoqda. Genderning psixologik jihatlarini taniqli ruhshunoslar Z.Freyd, T.Parsons, R.Stoller, Sh.Bern, A.Bandura, Simona de Beauvoir, A.Klima, S.Kon, Z.Uzmanova, I.S.Klesina, E.G‘ozdiyev, O.Abdusattorova, X.R.Haydarova, sotsiologiyaga oid qirralari E.Goffman, R.Xof, A.Kolstkorova, A.Zdravomislova, A.A.Tyomkina, G.K.Zaysev va A.G.Zaysev, G.B.Urazaliyeva, falsafaga oid tomonlari Keyt Uest, D.Zimmerman, S.G.Ayvazova, I.Jerebkinalar, antropologiya bilan bog‘liq jihatlarini Ye.R.Yarskaya-Smirnova, pedagogikaga oid ayrim qirralari L.Shustova, P.Repkina, O.Musurmonova, R.Safarova, G.Akramovalarning ishlarida yoritilgan. Ta’lim jamiyatda faqatgina texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omili bo‘libgina qolmay, ma’naviy va iqtisodiy rivojlanishning ham muhim strategik vositasidir. Mustaqil mamlakatimizda ta’lim sohasiga bo‘lgan munosabat doimo e’tibor markazida bo‘lgan. Shunday ekan, ushbu vazifa ta’lim tizimining barcha bosqichlari, ayniqsa maktabgacha ta’lim tashkilotlari zimmasiga yuklab kelingan.

Inchunun, R. Stoller “jinsga tegishli, biroq yolg‘iz shaxslararo va sotsial aloqalar kesimida tug‘iladigan subyektiv va xulq-atvor xususiyatlarini belgilash uchun jins guruhidan istifoda etishga chaqiradi. Zotan, “gender” grammatik



atamasi faqat erkak yoki ayol belgilarining ontologik mohiyatini emas, balki xoslangan fazilatlarini ham bildiradi” [2].

Jinsiy masalalarni tekshirib, tadqiqotchilar jismoniy jinsiy munosabatdan boshqa ijtimoiy jinsiy aloqa ham bor, degan to‘xtamga kelishdi.

Hozirgi rivojlanib borayotgan davrda “gender” tushunchasi bir talay mazmunlarni ifoda etadi va har xil vaziyatlarda ishlatiladi:

1. Ijtimoiy-madaniy qurilish o‘laroq gender.
2. Tabaqalanish turkumi sifatida gender.
3. Madaniy metafora sifatida gender.
4. Ilmiy ta’rif sifatida gender va boshqalar.

Gender atamasi ayni paytda ham tabiiy, ham ijtimoiy-madaniy omillar bilan belgilanadi, ya’ni avval erkak va ayol tug‘iladi, so‘ng boshqa-boshqa bo‘lib shakllanib, ajrala boshlaydi.

“Demak, gender masalasi hayotda ikki qism – tabiiy va bioijtimoiy tarkibdan tashkil topgan:

- tabiiy, xususan, jismoniy tuzilish, fiziologik, ruhiy, morfologik tarkibiy qismlarning jinsiy tafovutlari;
- ijtimoiy-madaniy, ya’ni tizimli tarkib, uning mohiyati kishilik jamoasining madaniy va ijtimoiy yakdilligi o‘laroq, nazardan o‘tkazishga urinishdir, ular odamning amaliy harakatlari oqibatida vujudga kelib, shakllanib boradi, yangilanishlarga yuz tutadi. Diqqatga molik jihati shundaki, tabiiy tarkibiy qism uzluksiz tarzda saqlanib qoladi, jins komponenti esa o‘zgaruvchan bo‘lib, doim harakatda bo‘ladi”.

Taniqli farang ruhshunosi J.Lakanga ta’kidlashiga ko‘ra, jins nafaqat tug‘ma xususiyat, balki jonli tilning faoliyati, fikrlash, ichki mantiqning oqibati ekanligiga e’tibor qaratib, unga ko‘ra har bir obyekt “u (erkak)” yoki “u (ayol)” deb ataladi.

S.V.Rojkovaning fikricha, bugungi sharoitda gender atamasi yuzasidan bahs yuritilganda, aksariyat “ayollar muammosi”ning mavjud qolipi ustidan “g‘alaba qozonish” lozim. Gender muammolarini faqat ayollar masalasiga bog‘lash an’anaga aylandi. Afsuski, bularning bari nafaqat ayollar, balki erkaklarga ham birdek tegishli bo‘lgan ijtimoiy kollektivga doir muammolardir. Ular nafaqat fiziologik jinslarning o‘zaro aloqasida, balki tabiiy ko‘payishda rollarning taqsimlanishi bilan cheklanib qolishadi.

Xulosa qilib aytganda, ayollarning asosiy talab-istaklarini qondirish sharoitida gender tengligiga erishish mumkin, ya’ni suv, oziq-ovqat, yoqilg‘i, uy-joy, tibbiy xizmat bilan ta’minlash; moddiy boylikni ayol va erkak o‘rtasida teng bo‘lish.



Xotin-qizlarning sotsial darajasi, uning yetakchi roli, rahbarlik lavozimlariga tayinlashda tenglikni ta'minlash, shaxsiy hamda ijtimoiy muammolarni haqiqat bilan yechim toptirish ahamiyatli omildir. Boz ustiga, ayollar o'z ehtiyojlari va muammolari to'g'risida xabardor bo'lishlari kerak; ularga nisbatan kamsitilishga yo'l qo'ymaslik; ayollarning manfaatlari va huquqlarini himoya qilishdan iborat.

Adabiyotlar:

1. Столлер Р. Секс и пол: развитие мужественности и мужественности и / Роберт Столлер // Международная психоаналитическая библиотека / Книги Карнака, – 1984. – 383 с.
2. Столярчук Л.И. Теория и практика воспитания школьников в протессе полоролевой социализации. доктор педагогических наук. – Москва, 1998. – 399 с.
3. Андреева Н.И. Гендерная культура в современном российском обществе [Электронный ресурс] / Андреева Н.И. // – 2015. – Режим доступа: <https://studfiles.net/preview/4279642/>.
4. N.M.Egamberdiyeva (2023) Ta'lim tizimida gender tengligini ta'minlash masalalari (2023) <https://doi.org/10.5281/zenodo.1011172>.
5. Bayjonov F.B. Oilada o'spirinlarda gender tengligi masalalari // Xalq ta'limi vazirligi, Maktab va hayot Ilmiy-metodik jurnal. – Toshkent, 2021. – №3. – B. 17-19

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada zamonaviy oilada “gender” atamasi hamda gender tenglik masalalari haqida ma'lumot berilgan. Bu esa, o'z navbatida, oila va ta'lim muassalari hamkorligida o'quv jarayoni samaradorligini ta'minlashga yordam beradi.

РЕЗЮМЕ

В этой статье рассматривается термин "гендер" в современной семье, а также вопросы гендерного равенства. Это, в свою очередь, поможет обеспечить эффективность образовательного процесса при сотрудничестве семьи и образовательных учреждений.

SUMMARY

This article covers the term “gender” as well as gender equality issues in the Modern Family. This, in turn, helps to ensure the effectiveness of the educational process in the cooperation of family and educational institutions.